

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMATULLAYEVA SHAXODAT ZIYOTOVNA**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB  
CHIQUISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2026**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Raxmatullayeva Shaxodat Ziyotovna**

Boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish..... 5

**Рахматуллаева Шаходат Зиетовна**

Совершенствование лингводидактической основы разработки учебных задач в начальном образовании ..... 35

**Rakhmatullaeva Shakhodat Ziyotovna**

Improving the linguo-didactic basis of the development of educational tasks in primary education ..... 70

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 75

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMATULLAYEVA SHAXODAT ZIYOTOVNA**

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB  
CHIQUISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Ped764 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**XXX**

**Rasmiy opponentlar:**

**Nurullayeva Shaxlo Uktamovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Islomov Ikrom Xushbokovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2026-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875-221-21-04, faks: (+99875-221-00-56, e-mail: [kasu\\_info@edu.uz](mailto:kasu_info@edu.uz)) Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, 3-qavat, 310-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2026-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**G.Ernazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, f.f.d., professor

**N.Ochilov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.f.d. professor

**Sh.Nurullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.,  
professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda til o'qitish metodikasi pedagogika va tilshunoslik erishgan yutuqlardan foydalanadi. Til inson uchun borliqni anglash vositasi hisoblanib, o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi ona tili orqaligina shakllanadi. Barcha xalqlar milliylikni asrashning bosh mezonini sifatida ona tilini anglaydi va buni ta'lim orqali amalga oshirayotganda ona tilini faol muloqot vositasiga aylantirish, qadriyat sifatida ulug'lash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning yangi usullarini kashf qilish, amaliyotga uzluksiz joriy qilib borish muhim masalalardan hisoblanadi. Xalqaro til o'qitish metodikasida andoza sifatida qabul qilinayotgan xorijiy tillar ta'limi yutuqlaridan aksar mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro til o'qitish metodikasida nutqiy ko'nikmani rivojlantirish, o'quvchini turli nutqiy vaziyatga tayyorlash asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish o'quv topshiriqlarining sifati va mazmuniga bog'liqdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmuni o'quv topshiriqlari orqali yuzaga chiqishi, ayniqsa, xalqaro til o'qitish metodikasida o'quvchi uchun o'quv topshiriqlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda rivojlangan tillarni ona tili sifatida o'qitishga doir ilmiy-metodik adabiyotlarda ona tili ta'limi, asosan, boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash, turli uslubda taqdim qilingan ma'lumotlarni o'qib tushunish va munosabat bildirish uchun tayyorlashga yo'naltiriladi. Har bir mashg'ulotda taqdim qilingan ma'lumotning o'quvchi uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro til ta'limi tajribasida o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. O'quv topshiriqlari belgilangan muayyan mezonlar asosida shakllantiriladi, shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ona tili boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. Fanlararo integratsiyani, albatta, savol va topshiriqlar ta'minlab beradi, shu nuqtayi nazardan o'qitish metodikasining asosiy muammosi sifatida pragmatik o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish qayd qilinishi lozim.

Yangi O'zbekistonimizda o'zbek tilining ona tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish, zamonaviy o'qitish metodikasini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona-Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"<sup>1</sup>ligi ona tili ta'limi oldiga, xususan, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish muammolarini dolzarb vazifa sifatida qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

---

<sup>1</sup>uz.uz. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2019 йил 21 октябрь.

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi "Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risida"gi 419-son, 2020-yil 11- martdagi "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-son qarorlari, 2020-2030-yillarda amalga oshirish dasturida zamonaviy o'qitish metodikasini yaratishga doir belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Markaziy Osiyo mamlakatlarida ona tilini o'qitish, uni avaylab-asrash, milliy qadriyat sifatida ulug'lashga doir ilmiy izlanishlar uzluksiz ravishda olib boriladi. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Mugla Universiteti (Turkiya), Indiana University (AQSH), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Nauchniy sentr gumanitarnix issledovaniy (Rossiya) kabi ko'plab ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda.

Kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish muammolari, ona tilini matn ustida ishlash orqali o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari sinflar kesimida o'rganilib, bu boradagi mustaqil hamda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish tizimi ishlab chiqilgan (Ulyanovskiy gosudarstvenniy universitet); nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education); til o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan (Payomi Donishgohi Milliy Tochikiston), Janubiy Qozog'iston pedagogika universiteti oliy ta'lim muassasalarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan.

Dunyo ta'lim tizimida interaktiv o'qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSH), interaktiv ta'limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), ona tilini o'qitish muammolari (Baku: Azərbaycan Dövlət Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanish olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon pedagogikasida, ayniqsa, ona tili o'qitishda muammoli ta'lim, uning didaktik xususiyatlari, o'quvchilar badiiy-ijodiy tasavvurlarini shakllantirishning ustuvor vazifalari, o'quv topshiriqlarining tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan va ta'lim jarayoniga doir nazariy, amaliy va metodik tadqiqotlar A.N.Leontev, J.A.Ponomarev, L.Rubenshteyn<sup>2</sup>, avstraliyalik olim Jak Richards<sup>3</sup> va boshqa bir qator metodist-olimlarlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ona tili o'qitish metodikasiga doir qator ilmiy-metodik tadqiqot olib borildi. Ona tili ta'limida ilk darsliklar shakllanishida A.Fitrat, O.Usmon, B.Avizov, Y.Abdullayev, M.Omilxonovalarning xizmati katta bo'lgan, ammo darsliklarning dastlabki variantlarida o'quv topshiriqlari berilmagan. Mustaqillikning dastlabki yillarida A.G'ulomov, H.Ne'matov, M.Asqarova, R.Safarova, D.Yo'ldoshevalar ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini yangilashning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Jumladan, Sh.Yusupova<sup>4</sup> va N.Yuldasheva<sup>5</sup> tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish masalalari tadqiq qilingan. A.G'ulomov<sup>6</sup>, M.Saidov<sup>7</sup> va N.Alavuddinovalar<sup>8</sup> esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Uzluksiz ta'limda ona tilidan til sathlarini uzviylikda o'qitish, xususan, gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha T.Yusupova tomonidan ilmiy izlanish amalga oshirilgan<sup>9</sup>. X.Muxitdinova ta'lim bosqichlarida uzviylikni ta'minlashning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga oid tadqiqotini olib borgan<sup>10</sup>. Qayd qilingan ushbu tadqiqot ishlarida o'quv topshiriqlarining turlari, undan nutq o'stirishda foydalanish masalalari ham yoritilgan. B.Mengliyev ona tili o'qitishda ortiqcha grammatizmdan voz kechib, o'quvchilarda nutqiy ko'nikmani rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni o'quvchi tafakkuriga singdirish, o'quvchini turli nutq vaziyatiga tayyorlash, ijodiy tafakkur

---

<sup>2</sup>Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1976. – 416 с.; Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогики. – М., 1976. – 280 С. Росков О. Р. теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материале гуманитарных наук). Copyright © 2016 Все изображения и видео на этом сайте будут показаны. пед. наук. – Тбилиси, 1986. – 50 с.; Розиков О. и так далее. Дидактика. – Ташкент: Наука, 1997. – 256 с.; Краткий педагогический словарь. Переходы: навигация по сайту, поиск Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.

<sup>3</sup><https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/>

<sup>4</sup>Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 137 б.

<sup>5</sup>Юлдасева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида луғавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 123 б.

<sup>6</sup>Тулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 37 с.

<sup>7</sup>Сайдов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2000. – 25 б.

<sup>8</sup>Алавуiddинова Н. Она тили дарсларида иждодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2008. – 24 б.

<sup>9</sup>Юсупова Т. Узлуksиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлақларни ўргатиш: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 22 б.

<sup>10</sup>Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуksизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ – Тошкент, 2011. – 270 б.

sohibini tarbiyalashning nazariy-amaliy masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda<sup>11</sup>. Uning muallifligida yaratilgan darsliklarda o'quv topshiriqlar ayni shu ta'lim maqsadini bajarishga moslandi.

Keyingi yillarda til ta'limiga kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish borasida pedagogika, filologiya fanlari doktorlari, professorlar R.Safarova<sup>12</sup>, Sh.Yusupova, X.Muhiddinova, B.Mengliyev, Sh.Yuldasheva, Q.Husanboyevalarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim.

Tadqiqotchi A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G'aniyev, M.Saidov A.Hamroyev, K.Mavlonova<sup>13</sup>lar ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, o'zining ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchining bilish faolligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. H.Suyunov<sup>14</sup>ning adabiyot o'qitishda savol va topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish usullariga doir tadqiqoti adabiy ta'lim, shuningdek, ona tili ta'limi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Rozikov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, I.E.Davronov<sup>15</sup>lar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi faolligini oshirish muammolari ham o'rganilgan. Shu o'rinda G'Hamroyevning ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarining o'rni va ahamiyati<sup>16</sup>ga doir ilmiy tadqiqot ishi boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlar tizimini takomillashtirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etsa-da, ammo boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish metodikasi borasida maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi

<sup>11</sup><http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilayetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019>.

<sup>12</sup> Қаранг: Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти: пед. фан. док. ... дисс. –Тошкент, 1995. – 242 б; Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б; Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 2011. – 270 б; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б; Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш: пед. фан. док. (Dsc) ... дисс. –Тошкент, 2020. –242 б.

<sup>13</sup> Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш: пед. фан. док. (Dsc) ... дисс. –Тошкент, 2020. –242 б; Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: пед. фан. фал. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 22 б.

<sup>14</sup>Суюнов Ҳ. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.

<sup>15</sup>Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения: автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 1994. – 44 с.; Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. – М.: Учитель, 1981. – 103 с.; Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: Қори Ниёзий номли ЎзПФТИ, 2002. – 265 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 280 б.; Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари: пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 42 б.

<sup>16</sup>Ҳамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари тузиш методикаси. Монография. – Тошкент: Донишманд зиёси, 2021. – 196 б.

davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A-1-173. “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” (2015-2017- yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi hamda AIF-2/17 “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar” (2018-2020- yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asosini takomillashtirish, til ta’limida o‘quv topshiriqlarining o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang‘ich sinfda ona tili o‘qitishga doir mahalliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish, ilmiy-metodik qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning bugungi holatini o‘rganish va pragmatik mazmundagi o‘quv topshiriqlarining ona tili ta’limidagi o‘rnini belgilash;

boshlang‘ich sinfda o‘quv topshiriqlari orqali nutqiy malaka va fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishning mazmun, usul va vositalarini ishlab chiqish;

boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarda tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qib tushunish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari tizimini o‘rganish;

boshlang‘ich sinfda til ta’limini modernizatsiya qilish, savol, mashq va topshiriq tushunchalari hamda ularning vazifalarini tasniflash, ularni tubdan takomillashtirish, topshiriq namunalari ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba orqali darsliklar mazmuni, ona tili darslarida sinab ko‘rish va olingan xulosalarni umumlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida boshlang‘ich sinf “Ona tili”, “O‘qish savodxonligi” (1-4-sinflar) darslarida keltirilgan o‘quv topshiriqlariga doir matnlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishning pedagogik, psixologik va lingvodidaktik asoslarini rivojlantiruvchi metod va usullariga doir texnologiyalarini o‘rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tanqidiy, tahlil etish, sotsiometrik (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quv topshiriqlarini o‘quvchi yoshiga nisbatan pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan tasniflash va tavsiflash, ularning ona tili ta’limida tutgan o‘rni va vazifalari aniqlangan;

boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malaka hosili qilishi, savol va topshiriqlarni ongli bajarishga yo‘naltirish, fikrlashga undash hamda ona tili ta’limida nutqiy kompetensiyaning tizimli hosil bo‘lishi va rivojlanishiga erishish mumkinligi lingvodidaktik jihatdan isbotlangan;

boshlang‘ich sinfda matn bilan ishlash texnologiyasi, savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda nutq vaziyatidan kelib chiqib murojaat qilishga o‘rgatish, lisoniy-uslubiy darajalari, til o‘qitish metodikasida

o'quv topshirig'iga pragmatik usulda yondashishning ilmiy-metodik afzalliklari dalillangan;

tinglab tushunish ko'nikmasi bilan birga o'quvchida muloqot vaziyatiga ko'ra murojaat qilish, nutq so'zlash malakasini ham baravar rivojlantirish lozimligini nazarda tutib, o'quvchini to'g'ri va mantiqli fikr ifodalashga o'rgatish yo'llari, turlari, innovatsion metodlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinfda baholash tizimi uchun matn ustida ishlash orqali eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalari ona tili ta'limining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida o'quv topshiriqlarini tuzish va undan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilinib, darslik va qo'llanmalardagi tipik xato va kamchiliklar ta'lim amaliyotida o'quv topshiriqlari tuzishga pragmatik usulda yondashish bilan bog'liq murakkabliklarga tavsif berilgan, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berishga doir seminar-treninglar aniqlangan;

ona tilidan takomillashtirilgan mashq, savol va topshiriq tushunchalariga pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan ta'rif va tavsif berilib, ularning o'zaro farqi, qo'llanish o'rinlariga doir takliflar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinfda o'quv topshiriqlarini tasnif va tavsif etish asosida yaratilgan savol, mashq va topshiriq namunalari asosida o'quvchilarni matn ustida ishlash, o'qib tushunish, nutq so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda mustaqil ishlash yo'llari master-klasslar orqali ko'rsatilgan;

o'quv topshiriqlarini tubdan yangilash boshlang'ich sinfda "Ona tili" darsliklarini modernizatsiya qilish, matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda nutq vaziyatidan kelib chiqib fikr bildirishning uslubiy darajalarini aniqlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari yakuniga ko'ra matn ustida ishlash orqali – eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon so'zlash, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalari ona tili ta'limida natijalarni qulay baholash mezonlarini ishlab chiqishga doir model taklif qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olinganligi, qo'llanilgan tahlil metodlari, tahlilga tortilgan o'quv topshiriqlarining tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganini bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'quv topshiriqlarining o'rnini belgilash, ona tili ta'limi mazmunini isloh qilish nuqtayi nazaridan monografik tarzda tadqiq etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklari, o'quv qo'llanmalar, o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratishda, oliy o'quv yurtlarida "Boshlang'ich sinfda ona tili o'qitish metodikasi"dan fan

dasturlarini tuzishda, ma'ruza matnlarini tayyorlashda, magistratura ixtisosliklari uchun "O'quv topshiriqlari tuzish metodikasi" fanidan qo'llanmalar yaratish, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4-sinflarida ona tilini o'qitishni yanada takomillashtirishda xizmat qiladi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Boshlang'ich ta'lim tizimida ona tilidan o'quv topshiriqlari ishlab chiqishning lingvodidaktik asosini takomillashtirish doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

boshlang'ich sinf o'quv topshiriqlarini o'quvchi yoshiga nisbatan pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan tasniflash va tavsiflash, ularning qo'llanilish o'rinlari, boshlang'ich sinf ona tili ta'limida tutgan o'rni va vazifalarini aniqlashga doir fikr va mulohazalardan 2020-2023-yillarda Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi fanlari milliy instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan F1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali direktorining 2026-yil 23-fevraldagi 89-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili ta'limi jarayonida o'quv topshiriqlardan maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilgan;

boshlang'ich sinfda tinglab tushunish, muloqot vaziyatiga ko'ra murojaat qilish, nutq so'zlash malakasini rivojlantirish, o'quvchini to'g'ri va mantiqli savol berishga o'rgatishga oid tajribalar tahliliga doir ma'lumotlardan "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 391201-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarda savol o'quv topshiriqlaridan foydalanishga doir nazariy ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

ona tili darslarida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari tahlil elementlaridan foydalanib, boshlang'ich sinfda mashqlardan, asosan, ko'nikma va malaka hosil qilishda, savol va topshiriqlardan biror amalni bajarishga yo'naltirish, fikrlashga undash hamda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakani baholash maqsadlarida foydalanish ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga erishishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 2012-2016-yillarda FI-FA-0-43429.FA-FI. GOO2 "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadbiq etish" hamda 2017-2020-yillarda FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali direktorining 2025-yil 24-fevraldagi 90-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligi jarayonida savol va topshiriqlardan o'rinli foydalanish ta'minoti takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlash orqali sinf o'quvchilarining faolligini oshirish, ko'nikma va malaka hosil qilish, tinglab

tushunish va ularda matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol texnologiyalar ("Bir so'z bilan nomlang", "Taxmin qiling va o'qing", "Kim biladi, davom eting", "Bo'g'in yoki so'z")ni adaptivlik, variativlik, mobillik tamoyillariga ko'ra integratsiyalash asosida takomillashtirilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 277-387-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, ona tili fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni savol o'quv topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligi oshirilishiga xizmat qilgan;

o'quvchilarda o'qib tushunish, tinglab tushunish madaniyatini shakllantirish metodikasi o'quv materiallari bilan ishlash (chaqiruv, anglash, fikrlash) va amaliy faoliyat (tushunish, anglash, tahlil, baholash) tajribalarini amaliy vektorga ustuvorlik berish orqali gorizonta integratsiyalash asosida takomillashtirilganligiga doir ma'lumotlardan "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 429-796-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish jarayonining metodik ta'minoti takomillashtirilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi natijalari bo'yicha 31 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, shundan 8 tasi respublika, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Asosiy matn 250 sahifa.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obekti hamda predmeti tavsiflangan, muammoga doir xorijiy tadqiqotlar va o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Boshlang'ich ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarining o'rni va ahamiyati**" deb nomlangan va uch bo'limni o'z ichiga oladi. Dastlabki bo'lim "**Boshlang'ich ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari**" tadqiqiga bag'ishlangan.

O'qituvchi o'zining kundalik pedagogik faoliyatida doimo o'quv topshiriqlaridan foydalanadi. Pedagogik amaliyot o'qituvchilardan ta'lim mazmunining o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida o'quv topshiriqlarini doimiy ravishda tahlil qilish, loyihalash va takomillashtirib borishni talab etadi. Bu jarayonda topshiriqlarning mazmuni, shakli va murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqilishi zarur.

Bu bo'limda o'quv topshiriqlarining mohiyati va ta'lim jarayonidagi o'rni haqida fikr yuritilib, o'quv topshirig'i – bu o'quvchini faol fikrlash, izlanish va mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi, dars maqsadiga mos ravishda ishlab chiqilgan didaktik birlik ekanligi xususida to'xtanilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda o'quv topshiriqlari muhim ta'limiy vosita hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganadilar. Bunday topshiriqlar bolalarda mustaqil fikr yuritish, kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi takomillashib, nutq madaniyati hamda savodxonlik darajasi oshadi. O'quv topshiriqlaridan samarali foydalanish dars jarayonini jonli, interfaol va o'quvchilar uchun yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ona tili darslarida qo'llaniladigan o'quv topshiriqlari mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Axborotli topshiriqlar – yangi mavzuni o'zlashtirishga yo'naltirilgan (masalan, so'z turkumlari, gap turlari haqida kuzatish mashqlari).

2. Amaliy topshiriqlar – o'rganilgan bilimni mustahkamlash, qo'llash uchun (masalan, gap tuzish, so'z yasash, imlo mashqlari).

3. Ijodiy topshiriqlar – o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi (masalan, hikoya tuzish, maqolni davom ettirish, rasm asosida matn yozish).

4. Tahliliy topshiriqlar – til hodisalarini solishtirish, taqqoslash, umumlashtirishga yo'naltiriladi.

5. Kommunikativ topshiriqlar – o'quvchilarning nutqiy faoliyatini, og'zaki muloqotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu topshiriqlar o'zaro bog'liq holda qo'llanganda o'quvchi shaxsining tafakkuriy, nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalari rivojlanadi.

O'quv topshiriqlari kompetensiyali yondashuv asosida ishlab chiqilganda, o'quvchi quyidagi asosiy kompetensiyalarni egallaydi:

<b>Kompetensiya turi</b>	<b>O'quv topshiriqlari orqali shakllanadigan ko'nikmalar</b>
Kommunikativ kompetensiya	To'g'ri talaffuz, ifodali o'qish, o'z fikrini og'zaki va yozma bayon etish.
Axborot bilan ishlash kompetensiyasi	Ma'lumotni topish, tahlil qilish, xulosa chiqarish.

<b>Kompetensiya turi</b>	<b>O‘quv topshiriqlari orqali shakllanadigan ko‘nikmalar</b>
Ijtimoiy faoliyat kompetensiyasi	Jamoda ishlash, muloqot madaniyatiga amal qilish.
O‘quv-bilish kompetensiyasi	Mustaqil ishlash, o‘z fikrini asoslash, ijodiy echim topish.

Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini faqat “biluvchi emas”, balki **“fikrlovchi va ijod qiluvchi shaxs”** sifatida shakllantiradi.

Ishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quv topshiriqlarini tuzishda quyidagi metodik talablarga amal qilishi zarurligi ilmiy asoslangan:

1. Topshiriq o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak.
2. Har bir topshiriq aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.
3. Topshiriqning shakli va mazmuni darsning turi va mavzusiga mos tanlanadi.
4. O‘quvchilarning qiziqishi, tajribasi va savod darajasi hisobga olinadi.
5. Har bir topshiriq natijasi muhokama qilinadi, tahlil qilinadi va baholanadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari”**, deb nomlangan.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning bilish faoliyati, nutqiy rivoji va shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan shu davrda bolaning fikrlash usullari, nutq madaniyati, til birliklarini anglash va ulardan amaliy foydalanish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ona tili fanidan beriladigan o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning yosh, psixologik va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. O‘quv topshiriqlarini takomillashtirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining uzviy bog‘liqligini talab etadi. Psixologik jihatdan qaralganda, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning idrok, xotira, diqqat va tafakkur jarayonlari faol rivojlanish bosqichida bo‘ladi. Ularning tafakkuri ko‘proq obrazli va amaliy xarakterga ega bo‘lib, abstrakt tushunchalarni qabul qilish asta-sekin shakllanadi. Shu sababli ona tili darslaridagi o‘quv topshiriqlari ko‘rgazmalilikka, hayotiy misollarga, qiziqarli matn va vaziyatlarga tayangan holda tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

L.S. Vgotskiy, I.Y. Zimnyaya, A.A. Leontev va S.L. Rubinshteynning psixologik tadqiqotlari tahlili til tashuvchisining rivojlanish muvaffaqiyati, asosan, ona tilining kommunikativ qobiliyatlar darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni

ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"<sup>17</sup>. Bunda o'quv topshiriqlari ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki, til ta'limida savol – mashq – topshiriq turlaridan iborat o'quv topshiriqlari qo'llaniladi. O'quv topshiriqlari, avvalo, ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari va mazmuniga bevosita bog'liq, o'quvchini fikrlashga, o'quv materiali ustida mustaqil ishlay olishga, zarur nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi. Afsuski, bugungi kungacha ona tili ta'limida o'quv topshiriqlariga o'qitish metodikasining asosi, ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatida qaralmadi. Ona tili darslarida ta'lim mazmunining asosi sifatida grammatik qoidalar tushunib kelindi, o'quv topshiriqlariga esa ushbu qoidalarni o'zlashtirishda foydalaniluvchi vosita sifatida qaraldi.

Ona tili ta'limida “mashq” va “topshiriq” atamalarini mohiyatan farqlash masalasida ham muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, metodist-olim M.Saidovning o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalari qorishtirib yuborilishini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning “mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli,” degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi<sup>18</sup>.

Ma'lumki, til darsliklarida, asosan, “mashq”, “savol” va “topshiriq” atamalari tabiiy va aniq fanlarda masala atamasi qo'llaniladi. Ularning barchasi o'quv topshiriqlari sirasiga kiruvchi ish turi bo'lib, mazkur atama ayrim tadqiqotlarda o'quv-biluv topshiriqlari deb ham talqin qilinadi.<sup>19</sup>

Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi til ta'limining asosiy maqsad vazifasi o'quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqadi. Shu bois tadqiqot ishimizda “mashq”, “savol”, “topshiriq” atamalari mazmuni, qo'llanishi, vazifalari va tasnifi masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Bizningcha, G'.Hamroyev ta'kidlagan<sup>20</sup> kabi topshiriq mashqni ham savolni ham o'z ichiga oladigan, o'quvchini bilim olishga yo'naltiradigan, baholashda ishtirok etadigan; takrorga asoslangan mashqlar orqali malaka hosil qilishni tashkil qiladigan asosiy o'quv topshirig'idir. Uzoq muddatli kuzatishlar, tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich sinf “Ona tili” darsliklaridagi mashq deb nomlangan o'quv topshiriqlari ham mashq emas, ya'ni mashqning o'quvchilariga javob bermaydi. Aslida mashq bilim berish vositasi emas, u ko'nikma va malaka

<sup>17</sup>Гуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

<sup>18</sup>Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. –Тошкент, 2000. – 25 б.

<sup>19</sup>Қўчқорова Ф. М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралашнинг дидактик параметрлари: фалсафа фан. докт. ... дисс.(PhD). – Тошкент, 2018. –13-бет.

<sup>20</sup>Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. –Toshkent. Donishmand ziyo. 2021. 17-b.

hosil qilish uchun qo'llanilishi kerak. Topshiriq bilim olish, mashg'ulotni tashkil etish va o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni baholashi, savol esa, o'quvchini fikrlashga undashi, sinab ko'rish uchun qo'llanilishi lozim. Amalda esa, ular aralash holda qo'llaniladi. Shu sababli metodlar, darsliklar mazmuni yangilansa ham dars samaradorligi sezilarli oshmay, nutqiy ko'nikmalar to'laqonli rivojlanmay kelmoqda. Shu ma'noda, o'quv topshiriqlari ona tili ta'limi mazmunini yuzaga chiqarishda, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatiga ega, ta'lim jarayonida o'quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Shulardan kelib chiqib, ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarining qo'llanilish o'rinlari, bajaradigan vazifalarni tahliliy o'rganilishi, ularga mazmun-mohiyatiga mos yangicha ta'rif berish va yangicha tasniflash til o'qitish metodikasini takomillashtirishga asos bo'ladi.

Ilmiy manbalarda "ta'lim mazmuni" tushunchasi bilan birga "o'quv material" atamasi ham qo'llaniladi. Didaktikada o'quv material tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda u "ta'lim mazmuni" tushunchasiga teng bo'lsa, tor ma'noda ma'lum darajada o'rganilishi kerak bo'lgan, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta'lim mazmunida esa o'quv rejalar, o'quv dasturlar, darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga oladi.<sup>21</sup>

Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak<sup>22</sup>, degan ta'kid, fikrimizcha, "Ona tili" darsliklariga ko'proq tegishlidir. Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilg'or mahsuli bo'lgan maqol, matal, hikmatli so'zlar, tasviriy ifodalar, iboralar ona tili ta'limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o'quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O'z o'rnida va o'z vaqtida o'quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o'zlarida hosil bo'lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o'quvchini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq muvofiq izlanishga undashi zarur. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki o'quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. Chunki maktabda ona tili ta'limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga etkazib berishni talab etadi. Demak, o'quv topshiriqlari o'quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash

---

<sup>21</sup>Қаранг: Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Она тили ўқитувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

<sup>22</sup>Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.– 4–19 б.

mumkin bo‘ladi. Hozir amalda bo‘lgan boshlang‘ich sinf maktab darsliklaridagi hamma o‘quv topshiriqlarini ham talab darajasida deb bo‘lmaydi. Chunonchi, ona tili darslarida tez-tez uchraydigan “Matndan unililarni topib tavsiflang”, “Berilgan gaplarni gap bo‘laklariga ajrating”, “Quyidagi gaplardan so‘z yasovchi qo‘shimchalarni toping va izohlang”, “Gaplarni bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajrating” kabi o‘quv topshiriqlari o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirmaydi va ko‘nikma va malakasini rivojlantirishga xizmat qilmaydi<sup>23</sup>. Hozirda ham fanlar uchun qo‘yilayotgan ushbu talablar ona tili ta‘limiga ham taalluqli. Maktab ta‘limida o‘quvchilarga gap tahlili, so‘z yasash usullarini emas, til birliklaridan nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olishni o‘rgatish kerak. Davr isbotlagan bu haqiqat bugungi kunda ona tili ta‘limiga nisbatan yondashuvni o‘zgartirish, o‘qitish metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 6084-sonli Farmonida o‘zbek tilini davlat tili va ona tili sifatida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy til o‘qitish metodikasini yaratish vazifalari qo‘yildi<sup>24</sup>.

Ona tilining kommunikativ rivojlanishini har bir bolaning ijtimoiylashuvi, ya‘ni tengdoshlar o‘rtasida kattalar bilan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Nutqiy qobiliyatni shakllantirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va o‘quvchining umumiy ta‘limiy ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liqdir.

Demak, ona tilining kommunikativ rivojlanishini ta‘minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida quyidagicha ko‘rib chiqish kerak:

- lug‘at miqdori (leksik minimum);
- nutqiy malakalarni egallashning mohirlik darajasi;
- fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi;
- matnni o‘qish sur‘ati darajasi;
- yozma nutq ko‘nikmalarinining shakllanish darajasi;
- kognitiv qiziqishlarning shakllanish darajasi;
- umumiy dunyoqarash darajasi.<sup>25</sup>

Yuqoridagilarga asoslanib, muloqot qilish uchun zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni quyidagicha ajratdik:

- til kompetensiyasi;
- nutq kompetensiyasi;
- pragmatik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya.

---

<sup>23</sup>Хамроев Ф. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Баёз. 2018. 19-б.

<sup>24</sup> <https://lex.uz/>

<sup>25</sup>Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95.

Mazkur talablarni amalga oshirish, kompetensiyalarni shakllantirish, albatta, til ta'limida maxsus o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta'limning afzalliklarini o'rganib chiqishni talab etadi.

Pragmatizm – ta'limni hayotga yaqinlashtirish, ta'lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo'lgan falsafiy-pedagogik yo'nalish hisoblanadi, pragmatik tilshunoslikda muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladigan nutq jarayoni hisoblanadi. Bugungi kunda til ta'limida amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor ahamiyat kasb etishi, nutqiy kompetensiyalar tarkibiga pragmatik kompetensiyaning ham kiritilishi o'quvchilarda maktab ta'limidan boshlab, nutq vaziyatiga mos ravishda so'zlash ko'nikmalarini, dialog, poliloglarda muloqot ishtirokchisiga aylanish, suhbatdoshlar bilan polemikaga kira olish va o'z fikrini asoslay olish kompetentligini tarbiyalab borishni taqozo qiladi.

Davlat ta'lim standartlari mazmunida ijodiy tafakkur sohiblarini tayyorlash, o'quvchini mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish vazifasi ham mavjud. Shu ma'noda zamonaviy dars qanday tashkil etilishi, o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan qanday muloqot qilishi, qanday topshiriq va savollar berish asosiy masala hisoblanadi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta'lim jarayonini savol-javob asosida tashkil qilish.

2. Darsni o'quv topshiriqlaridan o'rinli va maqsadli foydalangan holda amalga oshirish.

3. O'quvchilarning bilish faoliyati uchun tegishli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga oid o'quv topshiriqlari ishlab chiqish.

4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog'lanishlarni e'tiborda tutish.

5. Ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog'lanish, o'quvchilarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish.

6. Shaxsning barcha muloqot uchun zarur bo'lgan nutqiy malakalarini rivojlantirish, natijalariga ko'ra rag'batlantirish va faollashtirish.

7. O'quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning turli bosqichlarida mantiqiyli va emotsionalligi mezonlarini hisobga olish.

8. O'quv topshiriqlari bilan ishlashda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish.

9. O'quv topshiriqlarini o'quvchilarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog'lash.

10. O'quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko'zda tutish.

11. O'quv topshiriqlari o'quvchida bilim olish, fikrlash, nutqiy ko'nikmalarni egallashdan tashqari, o'zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Xalqaro til o'qitish metodikasi, xalqaro tadqiqotlarda til ta'limida qo'llaniladigan o'quv topshiriqlari o'quvchida zarur nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, eng muhimi, baholashga qulayligi bilan ajralib turadi:

1. *Berilgan so'zlarni talaffuz qiling.*
2. *Bo'sh qoldirilgan kataklarni so'zlar bilan to'ldiring.*
3. *Rasmni nomlang.*
4. *Jumlani to'ldiring.*
5. *Mavzuga mos bo'lmagan so'zni ajrating.*
6. *Ma'nodoshi bilan almashtiring.*
7. *Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar keltiring.*
8. *Savollarga javob bering.*
9. *Notanish so'zlarni ajrating.*
10. *Mos kelmaydigan jumlani aniqlang.*

Xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning, asosan, o'qish savodxonligi tekshirib ko'riladi, bunda barcha topshiriqlar matnga asoslangan bo'ladi:

1. Matndagi eng muhim so'zni aniqlang.
2. Matn mazmuniga mos aforizm yoki maqol keltiring.
3. Muallifning matndagi yashirin maqsadini ayting.
4. Matndagi eng muhim jumla qaysi?
5. Muallif g'oyasi, matn mazmunini bir jumla bilan ifodalab bering.

3-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida "Vatan" matni bilan ishlash uchun quyidagi o'quv topshiriqlari berilgan:

Savollarga javob bering.

1. Podsho nimaga qiziqar ekan?
2. Uning bog'i qanday ekan?
3. Malika nima yerkan?
4. Jallod qushni nega so'ymoqchi edi?
5. Jallod nimadan hayron qoldi?
6. Qush shohga nima dedi?
7. Nima deb o'ylaysiz, qushning qanday iltimosi bo'lishi mumkin?

An'anaviy ta'limda ona tili darslari, asosan, o'quvchiga bilim berish, xususan, o'quv topshiriqlari orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jummalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi.

Muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Bu ham, albatta, savol va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rnini bilan mashqlar ham ishtirok etadi.

Bunda o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi: – bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun maxsus topshiriqlar ham beriladi; – bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi.

Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni echish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida o'quv topshiriqlarning ishtiroki o'ziga xos bo'ladi:

– muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun etarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar orqali motivatsiyani ta'minlash;

– har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

– muammoni hal qilishda qo'yilgan topshiriq va savolning ahamiyati;

– o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi dialogik do'stona muloqotning o'rnatilishi.

Amaldagi dastur va darsliklar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq muvofiq muctaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki o'quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. Chunki maktabda ona tili ta'limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, balki til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga etkazib berishni nazarda tutmog'i lozim. Shu ma'noda, yaratilgan yangi avlod ona tili darsliklari matn ustida ishlashga mo'ljallangan o'quv topshiriqlari bilan boyimoqda. Boshlang'ich sinfdanoq ta'lim hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o'rgatishi kerak. Ona tili ta'limida har bir mashg'ulot orqali beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday o'quvchining hayotiy muammolarini yechishga yo'naltirishi lozim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarining turlari va funksional xususiyatlari**" deb nomlanib, "Boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarining turlari va tavsifiy jihatlari", "Boshlang'ich ta'limda mashq – nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida", "Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida savol o'quv topshirig'ining tasnifiy xususiyatlari" deb nomlangan bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiya tadqiqot ishimizning maqsadlaridan kelib chiqqan holda, til o'qitishda mashqning bajaradigan vazifalarini, qo'llanilish o'rinlarini quyidagicha yondashishlar asosida aniqlab olamiz

1. O'quv dasturlarida dars, mashg'ulot mavzusini mantiqan to'g'ri qayd etish.

2. Ish rejalaridagi mavzularni ko'zda tutilayotgan bilim, ko'nikma va

malakalarni shakllantira olish imkoniyatini hisobga olib tanlash.

3. Mavzuga doir o'quv topshiriqlarni foydalilik darajasi bo'yicha saralab olish.

4. Bugungi mavzuda, asosan, qanday o'quv topshirig'idan faol foydalanish mumkinligiga to'g'ri tashxis qo'yib olish.

5. Mashqlardan takrorlashni talab qiluvchi o'qish, yozish, gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish.

Ta'limda, xususan, ona tili o'qitishda savollardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

A) o'quvchi bilimni aniqlashga doir;

B) o'quvchi qobiliyatini aniqlashga doir;

S) o'quvchining fikrlash ko'nikmasini aniqlashga doir;

D) o'quvchining xotirasini tekshirib ko'rishga doir.

O'qituvchi sinfga savollar bilan murojaat qiladigan juda ko'p maqsadlar mavjud. Asosiylarini ko'rib chiqamiz. Demak, o'qituvchi quyidagi maqsadda savollar berishi mumkin:

– o'quv materialini bilish va tushunish darajasini yoki shakllantirilgan vazifalarning shart-sharoitlarini tushunish darajasini aniqlash;

– o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va motivatsiyalarini shakllantirish;

– o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, savollar asosida topshiriq berish va olingan natijalarni o'rganish;

– faoliyatda qaror qabul qilish va o'z-o'zini baholashiga imkon berish, masalan, o'qituvchi o'quvchiga biror masalani o'zi hal qilishi, gipotezani shakllantirish va kerakli xulosalar chiqarishga yordam berish uchun savollar beradi.

O'qituvchi o'quvchiga qanday savollar berishi kerak?

O'qituvchining o'quvchilarga qaratilgan savollarini maqsadga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

– to'g'ridan-to'g'ri savol – bilim masalasi; odatda aniq javob bor;

– tushunish savoli – bilimlarni yodlash yoki tushunish orqali egallanganligini aniqlashga qaratilgan savollar;

– yetakchi savol – o'quvchiga qiyin vaziyatda qaror qabul qilishga yordam beradigan savol;

– tushuntirish savol – o'quvchining o'z javobini to'ldirish maqsadida o'qituvchi bergan savol;

– ochiq savol – o'quv vaziyatini tahlil qilish, baholash yoki aks ettirish uchun savol, shuningdek, ijodiy savol (masalan, shartlilik, taxmin yoki prognoz elementlari bo'lgan savol).

O'quvchilar bilan samarali muloqot qilish uchun o'qituvchi barcha turdagi savollar bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak. Bu borada yetakchi va ochiq savollar, nihoyatda muhimdir, chunki ular o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi.

Savol berish bilan bog'liq muammolar. Odatda savol berish qiyin emasdek tuyulishi mumkin, unga javob berish ham oson emas. O'qituvchi tomonidan beriladigan savollar shunchalik o'ylab berilishi kerakki, o'quvchilarning bunday savollarga beradigan javoblari mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin, o'quvchi

hayoti davomida unga foyda keltirsin. Zero, o'qituvchi bergan savollar, shuningdek, ularni so'ragan yo'li o'quv materialining bilim darajasini, uning aql-zakovatini va ishga bo'lgan munosabatini ochib berish bilan birga o'quvchilarni turli muloqot vaziyatlariga tayyorlashi kerak. Shu sababli ham savol berish qiyin bo'lmog'i lozim. Amaldagi ona tili o'qitish metodikasida, "Ona tili" darsliklarida "Berilgan she'riy misralarda nechta unli qatnashgan?", degan savol o'quvchining kommunikativ savodxonligini oshirishda qanchalik foydali ekanligi haqida jiddiy o'ylab ko'rilishi kerak. "Berilgan gapda nechta boshqaruvli so'z birikmasi bor?", degan savol faqat tilshunos tayyorlash uchun foydali bo'lishi mumkin.

Endi o'qituvchi tomonidan savol berishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ko'rib chiqaylik.

1. O'qituvchining so'zi o'quvchiga tushunarli bo'lmasligi.

2. Savollarning bir xil turini belgilash. O'qituvchilar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri va tushunish uchun savollar beradi va muammoli savollar berilmaydi. Odatda o'quv materialini bilish va tushunish darajasini aniqlash maqsadida savollar beriladi, ya'ni savoldan, asosan, nazorat vositasi, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida foydalaniladi.

3. Noto'g'ri javoblarga salbiy reaksiyaning etishmasligi. Bunday reaksiyalar tufayli xatodan qo'rqish hosil bo'ladi. Aksincha, har kim xato qilishi mumkinligi haqida tushuncha hosil qilish kerak. O'quvchi o'zini tuzatishiga etakchi savollar berish foydalidir. O'quvchining savolga javobi bo'lmasa, boshqa savol berish kerak. Agar u bunga javob qila olsa, bahosini tushirmaslik kerak.

4. O'qituvchi o'quvchilarning o'ylab javob berishiga imkon bermaydi. O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib savollar berish tajribasi qo'llanilmaydi. Unutmaslik lozimki, o'quvchilarga javob haqida o'ylash uchun turlicha vaqt kerak, va taqdimot turli shaklda bo'lishi lozim. Misol uchun, kimgadir butun sinf oldida emas, balki yozma ravishda javob berish qulay va hokazo.

Shu o'rinda psixologik nuqtai nazardan o'qituvchi va ota-onalar uchun quyidagicha tavsiyalar berish mumkin:

O'quvchiga (bolaga) ritorik savollar bermaslik kerak, masalan:

"Men buni tushuntirganimda qayerda eding?"

"Menga nega diqqat bilan quloq solmading?"

"Buni sizga qachongacha tushuntiraman?" va hokazo.

Bu masalalar bolaning g'ururiga qattiq ta'sir qiladi va haqoratdek qabul qilinadi.

O'quvchilar tomonidan beriladigan savollar. Nega o'quvchilarni savol berishga o'rgatish kerakligi ona tili metodikasida muammo sifatida o'rganilmaydi. Savol berishga o'rgatilganlar turli maqsadlarni qo'yishlari, ularga erishishlari va xatolarni tahlil qilishlari mumkin. Maqsadlarni aniqlab olish qobiliyati insonning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Savollar va topshiriqlarni bajarib, fikrlashga rivojlantirishga o'rganadilar. Nima foydaliroq: o'qituvchining savoliga javob qidirishmi yoki taklif etilayotgan materialga o'z savollarini shakllantirishmi? Ma'lum bir mavzu doirasida savol

berishga o'rgatish orqali muayyan fanning mazmunini o'rgatish mumkin. Bunday savollarni rag'batlantirish orqali bu fanga qiziqish hosil qilish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning savollariga qanday javob berishi lozim?

1. O'quvchilarning savollariga rag'bat bildirish.
2. Juda yaxshi savollarni alohida ta'kidlash kerak.
3. Mantiqsiz savollarga ham xolis munosabat bildirish. Har qanday savolni jiddiy qabul qilish va besh daqiqa oldin tushuntirilgan bo'lsa ham, juda muhim deb javob berish kerak.

O'quvchini to'g'ri savol berishga qanday o'rgatsa bo'ladi? Har bir o'qituvchi bir qator topshiriqlardan foydalanishi mumkin, ularning mazmuni o'quvchilardan savollar tuzishni talab qiladi. Bunday topshiriqlarning ayrim namunalarini ko'rib chiqamiz.

1. Taklif etilayotgan o'quv materialini uchun savollar tuzish. An'anaviy o'qitishda o'qituvchilar o'quvchilarga paragrafdan keyin joylashtirilgan savollarga javob berishni so'rab, ko'rib chiqilgan paragrafga o'z savollarini shakllantirishni kamroq taklif qiladilar. Teskari o'rganish o'quvchilarning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishlarini, masalan, o'qituvchi taklif etgan savollarga e'tibor qaratishlarini nazarda tutadi. Mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar sinfda muhokama qilmoqchi bo'lgan savollar ro'yxatini tuzadilar.

2. Maqsadni belgilash bosqichida o'quvchilardan dars davomida javob topmoqchi bo'lgan bir qator savollarni shakllantirishlarini so'rashingiz mumkin. Bu savollarni sinf taxtasida yoki daftarlarda aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Dars oxirida berilgan savollar va olingan javoblarga yana e'tibor berish kerak.

3. Bilimlarni boyitish yoki bilimlarni mustahkamlash bosqichida o'quvchilarga ma'lum bir mavzu bilan bog'liq kalit so'zlarni taklif qilish mumkin. Kalit so'zlarni o'quvchilarning o'zlari qo'yishlari mumkin. Keyin o'quvchilar bu so'zlar haqida savollar tuzishlari lozim. Topshiriqni nafaqat frontal, balki musobaqa shaklidagi juft yoki guruhlarda ham bajarish mumkin. Misol uchun, bir guruh tasodifiy bir kalit so'zni oladi va buning uchun bir savol tuzadi. Ball esa eng yaxshi savol uchun beriladi.

4. Bilimlarni aktallashtirish bosqichida o'quvchi yoki o'quvchi o'zaro so'rov bilan almashtirilishi mumkin, bunda bir o'quvchi boshqasidan so'raydi, keyin javob beruvchi o'quvchi uchinchisidan so'raydi va hokazo. Bunday so'rovning asosiy sharti: har bir o'quvchi bitta savolga javob berishi va bitta savol berishi kerak.

5. Teskari topshiriqlar. O'quvchilar odatda topshiriqni bajarishda aniq savollarga javob beradilar. Masalan, yechilgan muammo bo'yicha shart va talablarni shakllantirish yoki muammo shartiga qo'yilgan maksimal talablarni shakllantirish; tayyor chizma, jadval, formula, foto, video uchun savollar bilan chiqish; mavjud javoblar uchun savollar tuzish. Bunday topshiriqlarni bajarish musobaqa shaklida juft yoki guruhlarda ham tashkil etilishi mumkin.

6. Rolli o'yinlar. Ushbu o'yinlarning shartlari ko'pincha savollarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Masalan, dars matbuot anjumani shaklida tashkil etilib, unda o'quvchi-jurnalistlar olimga savollar berib (bu rolni o'qituvchi yoki o'quvchi o'ynashi mumkin), so'ngra olingan material bo'yicha maqolalar

yoʻzishlari mumkin. Darsni tashkil etishning yana bir namunasi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etish boʻlishi mumkin. Oʻquvchilar qarshi tomon, yaʼni boshqa olimlar sifatida harakat va taqdim etilgan hisobotni koʻrib berishi kerak.

Bu oʻrinda quyidagi soʻroq olmoshlaridan samarali foydalanish mumkin: Nima? Qachon? Nima uchun? Qayerda? Qayoqdan? Qanday qilib?

Suqrotning “Toʻgʻri savol berish, yaxshi taʼlim berishdir”, degan fikri oʻquvchiga bilim berishning eng foydali yoʻlidir. Savol berish orqali oʻqitish juda samarali taʼlim usuli ekanligini taʼkidlagan Leven va Long oʻz tadqiqotlarida maʼlum qilishicha, odatda oʻqituvchi kuniga 300 dan 400 gacha savol beradi. (1981).<sup>26</sup> Demak, savollar har qanday mashgʻulotning asosini tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda savolning anʼanaviy va noanʼanaviy (pragmatik) turlari farqlangan holda berilgan:

2.1-jadval

No	Anʼanaviy savollar (amaldagi)	Pragmatik savollar (taklif qilinayotgan)
1.	Tovush va harfning qanday farqi bor?	Talaffuzi va yozilishi farq qiladigan qanday soʻzlarni bilasiz?
2.	Boʻgʻinning qanday turlari bor?	Boʻgʻin koʻchirish nega kerak? Qachon soʻzlar boʻgʻinga ajraladi?
3.	Urgʻuning qanday turlari bor?	Qaysi soʻzlarda urgʻu toʻgʻri qoʻyilgan?

Taʼkidlash lozimki, oʻquvchilarning oʻzlari savol beradigan va ularga javob izlaydigan mashgʻulot – zamonaviy va samarali darsdir. Oʻquvchilarni savol bera olishga oʻrgatish, oʻqituvchi bergan savollarning hayotiy masalalar yechimiga aloqadorligi ona tili taʼlimida ham juda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Boshlangʻich ona tili taʼlimida oʻquv topshiriqlarini pragmatik yondashuv asosida tuzish metodikasi**” deb nomlanib, unda boshlangʻich taʼlimda oʻquv topshiriqlari asosida nutqiy koʻnikmalarni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, ona tili taʼlimida tinglab tushunish va yozish koʻnikmalarini rivojlantirishga doir oʻquv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda muloqotda faol ishtirok etish va mustaqil fikrlash koʻnikmalarini oʻquv topshiriqlari orqali rivojlantirish metodikasi haqida fikr yuritilgan.

Oʻquv topshiriqlari asosida nutqiy koʻnikmalarni shakllantirish modeli esa taʼlim jarayonida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Ushbu model oʻquvchilarning nutqiy faoliyatini izchil rivojlantirishga

<sup>26</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

qaratilib, dastlab tinglash va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishdan boshlanadi, keyinchalik og'zaki nutqni rivojlantirish, fikrni mantiqiy ifodalash, matn tuzish va yozma nutqni takomillashtirish bosqichlariga o'tiladi. Har bir bosqichda o'quv topshiriqlari o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuziladi hamda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot faolligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada mazkur model o'quvchilarda barqaror nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni real hayotda samarali qo'llash imkonini beradi.

Bosqich	Mazmuni	O'quvchilarda shakllanadigan ko'nikmalar
Motivatsiya	Muloqot vaziyatini yaratish, qiziqtirish	Tinglashga e'tibor, mavzuga kirish
Qabul qilish	Matnni tinglash yoki o'qish	Asosiy mazmuni tushunish, tahlil
Tahlil va qayta ishlash	Savollar, mantiqiy topshiriqlar, guruhda ishlash	Fikrni umumlashtirish, bog'lash, xulosa chiqarish
Yaratish	Matn yozish, hikoya tuzish, dialog yaratish	Mustaqil nutq yaratish, grammatik to'g'rilik
Amaliy muloqot	Rolli o'yinlar, suhbatlar	Kommunikativ ko'nikma, erkin muloqot
Refleksiya	O'z ishini baholash, xatolarni tahlil qilish	Nutqni tahlil qilish, o'zini baholash

Bu model o'quvchining nutqiy faolligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qish savodxonligi maktabda fanlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan, o'qitishning amaliy maqsadlaridan biridir. O'qish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega u orqali o'quvchi o'z atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini boyitib boradi.

Maktabda o'qishga o'rgatish vositasi sifatida o'zgacha mashqlar tizimidan keng foydalaniladi:

1. Grafema – fonematik mashqlar o'quvchilarning ona tilida grafema-fonematik yozishmalarni o'zlashtirishlariga yordam beradi.
2. O'quvchilarga leksik va grammatik tahlilni olib borishga yordam beradigan strukturaviy axborot mashqlari strukturaviy belgilarga asoslangan holda mantiqiy mavzu va predikatni topish mashqlari.
3. O'quvchilarga matndan ma'lumot chiqarishga yordam beruvchi semantik va kommunikativ mashqlar ustida ishlash.

O'qitishning eng samarali usullarini topishda o'qituvchi o'quvchilar qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini bilishi kerak.

1. Birinchi guruh mashqlari o'quvchilarning grafik belgilarni fonik belgi bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan.

Ona tilida ham so'zlarni adabiy meyorlariga rioya qilgan holda o'qish uchun, matnlarni o'qishga o'rgatish uchun audio qurilmalardan foydalanish mumkin. Hatto talaffuzi qiyin tovushlar uchun transkripsiya orqali o'qishga o'rgatishdan

ham foydalaniladi. Bu o'quvchiga bir xil grafema turli tovushlar turgan hollarda so'zni to'g'ri o'qishga yordam beradi.

2. Ikkinchi guruhga tarkibiy-axborot mashqlari kiradi. Ular ovoz chiqarib o'qishda ham, so'zsiz o'qishda ham amal qiladi. O'quvchilarga gaplar, paragraflar va matnlarni to'g'ri o'qishga o'rgatiladi. Intonatsiyaga alohida e'tibor beriladi, chunki gaplarning haqiqiy bo'linishi, ulardagi mantiqiy predikatni yoritish uchun katta ahamiyatga ega. Ba'zan matnni belgilash foydalidir. O'qishni o'rganishning dastlabki bosqichida o'qituvchi sinfga hukm yoki parchani o'qib berishi kerak.

Ovoz chiqarib o'qishdan ko'proq o'qituvchi foydalanadi:

1) diagnostik o'qish (o'quvchilar o'qiydi va u o'qishda ularning zaif nuqtalarini ko'radi).

2) ta'limiy o'qish (o'quvchilar o'qituvchi yoki notiq tomonidan o'qilgan namunaga amal qiladilar).

3) nazorat (test) o'qish (o'quvchilar matnni o'qib, iloji boricha chizmaga yaqin olishga harakat qiladilar).

Maxsus mashqlar o'quvchilarning ovoz chiqarmay o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun taklif qilinishi mumkin. Bu ona tili darslarida ba'zan ko'chada va uyda ham amal qilinadigan o'qish turi.

Ovoz chiqarmay o'qishni o'rgatish ikki muammo bilan chambarchas bog'liq:

1. O'quvchilarga ma'lum tarkibiy belgilar bilan o'qiganlarini tushunishni o'rgatish, o'quvchilar grammatika va so'z boyligi haqida ma'lum bilimga ega bo'lishlari mumkin.

2. O'quvchilarning taxmin qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Leksik tahlil o'quvchilarga shakliy so'zlarni o'rganish, uning gapdagi mavqeyidan kelib chiqqan holda so'z ma'nosini aniqlash, notanish so'zlar ma'nosini hamda tanish ko'ringan, ammo so'z strukturasi mos kelmaydigan narsalarni topishga yordam beradi.

Topshiriqlardan ba'zi misollarni keltirib o'tamiz:

1-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing va bilmagan so'zlarning ma'nosini taxmin qiling.

2-topshiriq. Matndagi eng muhim so'zni toping.

3. O'quvchilarga matndan ma'lumot olishga yordam beradigan mashqlar. Matnni o'qish uchun o'quvchi matn mazmunini tushunib olishi kerak. O'quvchini taqqoslash, kontrastlash, taxmin qilish va voqealarni oldindan ko'ra bilishga o'rgatish kerak.

Savollar o'qish tushunish uchun juda foydali bo'lishi mumkin. O'quvchi fikrlarini matnni o'qib bo'lib bayon qiladi. O'qituvchi o'quvchilarga matndan ma'lumot olishni buyuradi. Mutolaa mashqlari tavsiya etiladi. Matnga quyidagicha savollar berish mumkin:

1. Matnni o'qing va nima uchun matn shunday nomlanganini ayting.

2. Quyidagi savollarni o'qing va javob toping.

3. Matnni o'qing. Tayanch so'zlarni toping.

4. Matnni o'qing va tushunganingizni gapirib bering.

5. Matnni o'qing va fikringizni dalillar keltirib asoslang.

Bundan tashqari, quyidagi topshiriqlar yordamida o'qib tushunishni tekshirish

mumkin:

1. O'qing va chizing.
2. Quyidagi ma'lumotlarni toping.
3. Quyidagi gaplarning o'rniga siz qanday jumla taklif qilasiz, to'g'rilang.
4. Matndagi eng muhim gaplarni toping.

Ba'zi topshiriqlar yozma ravishda bajarilishi mumkin.

Matn yetarli darajada yengil bo'lsa, savol berish, savollar tuzish, umumlashtirish, muhokama qilish kabi nutq bilan bog'liq bo'lgan metodlardan foydalaniladi.

Agar matn murakkab bo'lsa, tarixiy yoki mumtoz matn bo'lsa, ya'ni notanish so'zlar bo'lsa, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan usullar boshqacha bo'lishi kerak, chunki ular bo'yicha intensiv ish talab qilinadi.

Intensiv ish quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

1) o'quvchilarning so'z boyligini oshiruvchi va boyitishga yordam beruvchi izohli yoki etimologik lug'atlar bilan ishlash.

2) o'quvchilarning grammatik bilimlarini tahlil qilish va tizimlashtirishga yordam beradigan grammatik tahlil qilish usullaridan foydalanish.

3) matn mazmunidan kelib chiqib tahlil qilishni o'rgatish.

Mashqlar, asosan, o'quvchilar tomonidan tan olinishi bilan bog'liq – topish va o'qish, topish va tahlil qilish, topish va izohlash, savollarga javob berish, asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan gaplarni o'qishdan iborat.

Ba'zi o'qituvchilar o'rgatish o'rniga sinashga moyil bo'ladi va tez-tez o'qish va matnni tahlil qilishni cheklab qo'yadi. Bu o'zini oqlamaydigan amaliyotdir.

Matnlarni o'qish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Qiziqarli va o'quvchilar uchun yangi ma'lumot shaklida bo'lishi kerak.
2. Asosan, nutqiy muloqot o'quvchilarni madaniy maqsadlarga erishishni o'rganadigan odamlar hayoti bilan bog'liq ibratli bo'lgani ma'qul.
3. Ta'limiy-tarbiyaviy qiymatiga ega bo'lishi lozim.
4. O'quvchilar zavq bilan o'qishi va tushunishi uchun yetarli darajada oson, qulay matnlar tanlanishi kerak.
5. O'quvchilarning milliy til haqidagi bilimlarini boyitishga, potensial so'z boyligini kengaytirish uchun yordam berishi kerak.

O'qituvchi tinglab tushunish bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni bartaraf eta olmaydi. O'qituvchi ularga bu vazifani oson va qiziqarli bo'lishiga yordam berishi kerak. Buning uchun tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlashi mumkin bo'lgan quyidagi uch omilni hisobga olishi kerak:

1. Talaffuz yoki ohang.
2. Tinglash uchun tavsiya etilgan materialning mazmuni
3. Materialning shakli va keltirilgan shartlar.

Boshlang'ich ona tili ta'limda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning haliga qadar aniq mezonlari ishlab chiqilmagan. Uzoq vaqt o'quvchilar bilimi test tizimi orqali baholab kelindi. Natijada ona tilida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan asosiy nutqiy ko'nikmalar rivojlanmay keldi.

Ona tili o'qitish metodikasi oldidagi eng katta muammolardan biri o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini baholash bo'yicha maxsus mezonlar ishlab chiqishdir.

O'quvchilarning o'qish savodxonligini ham baholash bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb bo'lib turibdi.

Mamlakatimizda bugun asosiy e'tibor qaratilayotgan Uchinchi renessansning sodir bo'lishi, albatta, ilm bilan, sifatli ta'lim bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun yoshlarni, bo'lajak kadrlarni fikrlashga, yangicha o'ylashga, yangilik yaratishga o'rgatish lozim. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

O'quv ma'lumotlariga vositachilik qiladigan o'quv topshiriqlari to'g'ridan-to'g'ri o'quv materiallarini o'z ichiga oladi yoki uni qayerdan olish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu turdagi vazifalar o'qituvchining tushuntirishini qisman o'zgartiradi va o'quv materialining dastlabki idrokiga yoki uni mustaqil o'rganishga mo'ljallangan.

O'quv materiallari bilan o'quvchilarning ishini boshqaradigan o'quv vazifalari o'quvchini tushunish, o'quv ma'lumotlarini tizimlashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish; taqqoslashni, xulosalarni, umumlashtirishni taklif qiladi; yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinfda o'quv topshiriqlari orqali tinglab tushunish (anglash) va gapirish (nutq so'zlash) ko'nikmalari, asosan, mashq turlaridan unumli foydalanish, qolaversa, imlo, orfoepiya, orfografiya, tinish belgilari va, albatta, husnixat bilan bog'liq darslarda shakllanadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobini "**Boshlang'ich ta'limda takomillashtirilgan o'quv topshiriqlarining amaliyotda qo'llanilishi**" deb nomlanadi. Tadqiqot yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari 2022-2025-yillar davomida Qashqadaryo viloyat Qarshi tumaniga qarashli 1-, 28- va 33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari, Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi 41-, Jarqo'rg'on tumanidagi 61-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida, Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi 2-sonli, Uchko'prik tumanidagi 7-sonli hamda Quva tumanidagi 4-sonli umumta'lim maktablari o'quv jarayoniga joriy etildi. Tajriba-sinovda jami 462 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shundan 225 tasi sinov guruhiga, 237 nafari nazorat guruhiga olindi.

Tajribalar davrida tashkiliy-pedagogik funksiyalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida so'rovnomalar o'tkazildi. Unga ko'ra, "Bir so'z bilan nomlang", "Taxmin qiling va o'qing", "Kim biladi, davom eting", "Bo'g'in yoki so'z" metodlaridan foydalanib, boshlang'ich ona tili ta'limida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlari ishlab chiqildi va metodikani takomillashtirishga qaratilgan ish tajribalari o'tkazildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari 1-4-sinf ona tili darslarida qo'llangan qiziqarli, noan'anaviy, ijodiy izlanishga asoslangan savol, mashq va topshiriqlar orqali, avvalo, o'quvchining har bir nutq tovushini to'g'ri talaffuz qila olishiga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga,

o'rtaga qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga erishish mumkinligi asoslandi. Mazkur tajribalar tahlili ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning adabiy talaffuz, imloviy savodxonlik, mustaqil ishlay olish, muntazam so'z boyligini oshirib borishga oid kompetensiyasini shakllantirish masalasini kiritish lozimligini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi va o'z isbotini topdi:

– o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini pragmatik o'quv topshiriqlar orqali shakllantirish;

– pragmatik o'quv topshiriqlardan foydalanish jarayoni maxsus o'rganilib, undagi kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish yo'llari va omillari ishlab chiqildi;

– pragmatik o'quv topshiriqlarini o'rgatishning ahamiyati va didaktik imkoniyatlari anglangan holda metodik jihatdan to'g'ri tatbiq etildi;

– o'quvchilarga pragmatik o'quv topshiriqlarini o'rgatishning mazmuni, shakl, usul va vositalari ishlab chiqildi;

– o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantiradigan, o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmasini paydo qilishga yo'naltirilgan hamda samaradorlik darajasi aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

– o'qituvchilar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;

– ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars jarayoniga to'liq tatbiq etildi;

– olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar

takomillashtirildi.

“Ona tili” darsliklari uchun pragmatik o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish asnosida tuzilgan mashq va topshiriqlarni amaliyotda sinashdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilar edi:

- 1-4-sinf o'quvchilarida pragmatik o'quv topshiriqlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish;

- 1-4-sinf o'quvchilarida mustaqil ishlay olish, ijodiy yondashish, muntazam o'z so'z boyligini oshirib borish va shular zahirida o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olishiga erishish;

– o'quvchini tavsiya etilgan savol, mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z kuchiga, o'zi mustaqil ishlay olishiga ishonitirish;


– mavzuga doir nazariy ma'lumotlarni ham o'quvchining amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga bo'ysundirish;

– qiziqarli, noan'anaviy ijodiy izlanishga asoslangan pragmatik o'quv topshiriqlari orqali, avvalo, o'quvchining har bir nutq tovushini to'g'ri talaffuz qila olishiga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rtaga qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mantiqli ifodalay olishiga erishishdir.

1-4-sinf o'quvchilarida pragmatik o'quv topshiriqlar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi o'zlashtirish darajasining tajriba boshidagi samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagicha:

Daraja va mezon ko'rsatkichlari	1-mezon		2-mezon		3-mezon		4-mezon		O'rtacha ko'rsatkich		O'rtacha % (foiz) ko'rsatkich	
	T G	N G	T G	N G	T G	N G	T G	N G	TG	NG	TG	NG
<b>Uchta MTT</b>												
<i>Yuqori daraja</i>	47	48	38	41	45	46	45	40	44	44	19%	18%
<i>O'rta daraja</i>	69	75	74	74	63	71	74	76	70	74	31%	31%
<i>Past daraja</i>	10 9	11 4	11 3	12 2	11 7	12 0	10 6	12 1	111	119	49%	50%
<b>Jami</b>	22 5	23 7	22 5	23 7	22 5	23 7	22 5	23 7	225	237	100 %	100 %

**Tajriba-sinov o'tkazilgan barcha umumta'lim maktablari bo'yicha umumiy natijalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi.**




1-4-sinf o'quvchilarida takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari orqali amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasining tajriba yakunidagi samaradorlik ko'rsatkichlari

Daraja va mezon ko'rsatkichlari	1-mezon		2-mezon		3-mezon		4-mezon		O'rtacha ko'rsatkich		O'rtacha % (foiz) ko'rsatkich	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
<b>Uchta MTT</b>												
<i>Yuqori daraja</i>	77	58	70	52	76	54	77	56	75	55	33,33%	23,21%

<i>O'rta daraja</i>	103	87	104	85	105	81	108	87	105	85	46,67%	35,86%
<i>Past daraja</i>	45	92	51	100	44	102	40	94	45	97	20,00%	40,93%
<b>Jami</b>	<b>225</b>	<b>237</b>	<b>225</b>	<b>237</b>	<b>225</b>	<b>237</b>	<b>225</b>	<b>237</b>	<b>225</b>	<b>237</b>	<b>100,00%</b>	<b>100,00%</b>

**Tajriba-sinov oxirida o'tkazilgan barcha umumta'lim muassasalari bo'yicha umumiy natijalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi:**



Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhinikiga qaraganda yuqori ekan.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalari taqqoslandi. Bundan tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 10,35 % ga oshganligini ko'rish mumkin. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik jihatdan isbotlandi.

### **XULOSA**

1. Boshlang'ich ona tili o'qitish metodikasining asosini o'quv topshiriqlari tashkil etadi, ammo mashg'ulotlarda, darslik va qo'llanmalarda hali ham an'anaviy o'quv topshiriqlaridan foydalanilmoqda. Agar o'quv topshiriqlari pedagogik, psixologik va lingvometodik zaruratlar nuqtayi nazaridan takomillashtirilsa, savol, mashq va topshiriq turlari pragmatik yondashuv asosida ishlab chiqilsa, nutqiy ko'nikmalarning samarali rivojlanishiga erishish mumkin.

2. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari shakllantiriladi. Ammo ona til o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki o'quvchilar tilning

tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy qo'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda maktabga keladi. Shuning uchun ona tilidan o'quvchiga gapirish emas, nutq so'zlay olish talabi qo'yilishi va o'quv topshiriqlar tizimi ham shunga mos holda yaratilishi kerak.

3.O'quvchilarda ona tilidan (ular tining tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina shakllantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar rivojlantiriladi. O'quvchilar ona tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Shu ma'noda ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi o'quvchilarda eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalari tarzida nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

4.Boshlang'ich ona tili ta'limida nutqiy ko'nikmalarni, albatta, takomillashtirilgan, amaliy ahamiyatga ega, pragmatik o'quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda, ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish, o'quv topshiriqlarining qo'llanish o'rinlari, matn tanlash mezonlari ishlab chiqilishi va amaliyotga intensiv ravishda tatbiq qilish kerak.

5.Boshlang'ich ta'limida, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so'ng ham o'quvchi va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak.

6.Boshlang'ich ta'limda ham mashqning topshiriqdan farqi aniqlanib, ularning bajaradigan vazifalarida chegara belgilansa, har biri o'z mazmun-mohiyatidan kelib chiqib qo'llanilsa, zarur nutqiy ko'nikmalar tezroq shakllanishi mumkin. Mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarda topshiriq xarakteridagi mashqlardan foydalanib kelinadi. Asosi takrorni tashkil qiluvchi tom ma'nodagi mashqlar dastlab o'quvchida egallangan bilimga aloqador ko'nikma, undan keyin malakani hosil qiladi. Topshiriqlar esa ko'proq bilimni mustahkamlaydi, undan fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelindi.

7.Ona tili o'qitish jarayonida pragmatik yondashuv asosida takomillashtirilgan savol, mashq va topshiriqlardan foydalanilsa, nutqiy ko'nikmalar rivojlanib, natijada o'quvchilarning o'qish savodxonligi ma'lum darajada oshadi. Natijada turli uslubdagi matnlarni eshitib tushuna oladi, eshitilgan, o'qilgan matn haqida nutq so'zlay oladi, matndagi oshkor va yashirin ma'nolarni fahmlay oladi, o'z fikrini ixcham shaklda yozma bayon qila oladi.

8.Boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda ularning vazifaviy farqlanishi belgilab olingani sababli topshiriq – o'quvchini fikrlashga, o'quv topshiriqlari bilan ishlashga yo'naltirishi va shu bilan birga shakllangan bilim ko'nikma va malakalarni sinash vazifasini ham bajaradi. Ta'kidlash kerakki, topshiriq, umuman, mashg'ulotni tashkil etish vositasi hisoblanadi, u o'z ichiga mashqni ham, savolni ham sig'diradi.

9. Boshlang'ich ona tili ta'limida "savol", "mashq" va "topshiriq" tushunchalariga ma'no-mohiyatiga ko'ra pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berish lozim, ta'lim jarayonida, darslik yaratishda uning qo'llanilish o'rni aniqlangan holatda foydalanilsa, amaliy ahamiyati yanada oshishi mumkin. Topshiriq tushunchasining pedagogik ensiklopediyada izohi berilmagan, shuningdek, O'zbek tilining izohli lug'atida ham topshiriq so'ziga o'quv topshirig'i sifatida ta'rif kiritilishi lozim.

10. Boshlang'ich ona tili ta'limida o'quv materiallari bilan ishlashda matnga, suhbatdoshga vaziyatdan kelib chiqib savol berishning darajalari aniqlanib, savol tuzishga pragmatik usulda yondashilsa, o'quvchilarda o'zaro muloqot samarali bo'ladi, o'qituvchi ona tili mashg'ulotlarida o'quvchini bitta savolga bir nechta (10 dan ortiq) javob bera olishga tayyorlashi uning istalgan nutq vaziyatida asqotishi mumkin.

11. Boshlang'ich ta'limda tinglab tushunish ko'nikmasi bilan birga o'quvchida muloqot vaziyatiga ko'ra murojaat qilish, gapirish malakasi ham baravar rivojlanishi lozimligini nazarda tutib, o'quvchini to'g'ri va mantiqli savol berishga o'rgatishning usul va vositalari ishlab chiqilsa, o'quvchi turli nutq vaziyatlarida sarosimaga tushmasdan, ikkilanmasdan savol bera oladi, natijada matn ustida ishlashda ham savol tuzish, muammoli vaziyat yaratish va uning echimlarini taklif qilishda qiynalmaydi.

12. Boshlang'ich ta'limda mashq – ko'nikma va malaka hosil qilish, savol va topshiriqlar biror amalni bajarishga yo'naltirish, fikrlashga undash hamda eng, muhimi, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni sinash, baholash vazifasini bajarishi uchun uning ilmiy metodik asoslari vaqti-vaqti bilan takomillashtirib turilishi kerak, albatta, o'quv topshiriqlari tuzishda har doim yangi zamonaviy yondashuvlardan eng qulay va foydalisini qo'llash kerak, ammo pragmatik yondashuv eng samaralisidir.

13. Boshlang'ich ta'limda grammatik qoidalar emas, ona tilida matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish nafaqat o'quvchining adabiyotga, san'at va ijodga mehr qo'yishini ta'minlaydi, shuningdek, pragmatik o'quv topshiriqlari ona tili mashg'ulotlarida faol qo'llanilsa, boshqa ijtimoiy fanlar bilan birga fizika, kimyo, biologiya, matematik kabi aniq va tabiiy fanlar ham o'z-o'zidan rivojlana boshlaydi.

## **TAVSIYALAR**

1. Boshlang'ich ona tili ta'limida o'quv topshirig'ini takomillashtirish uchun, avvalo, rivojlantirilishi lozim bo'lgan nuqiy ko'nikma va malakalar aniq belgilab olinishi faoliyat samaradorligini oshiradi;

2. O'quv topshiriqlarini tuzish turli nutqiy vaziyatlarni ifoda qila oladigan, fikrlashga, munosabat bildirishga undaydigan turli uslublarga oid matnlar tanlab olish mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi;

3. Boshlang'ich ona tili darslari lug'atlar asosida o'rganilishi, bunda o'quv lug'atlariga alohida e'tibor berilishi, maktab o'quvchilari uchun turli shakldagi izohli, etimologik lug'atlar, elektron, multimediali orfoepik va imlo lug'atlari, ayniqsa, sinonim so'zlar o'quv lug'atlari bosma, elektron va multimediali shaklda yaratilsa, o'quv topshiriqlari orqali mashg'ulotga bog'lab olinadi;

4. O'qituvchilar, darslik mualliflari o'quv topshiriqlari tuzish bo'yicha yetarli ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, oliy o'quv yurtlarining filologiya, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlari o'quvchilari, magistratura hamda malaka oshirish bosqichlarida o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi bo'yicha maxsus kurs o'qitilishi maqsadga muvofiqdir;

5. Ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha darslik va metodik qo'llanmalarda o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha bo'lim ajratish zarurati bor, zero o'quv topshiriqlari ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi, mashg'ulotni tashkillashtirish, o'tkazish va natijalarni baholashda asosiy vosita hisoblanadi;

6. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi lozim, xususan, matnga, o'quv materialiga, darsda va darsdan tashqari holatda mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv topshiriqlari tuzish usullari, o'quv topshiriqlarining baholash bilan aloqadorligi, o'quv topshiriqlari va blum taksonomiyasi, o'quv topshiriqlari va PISA tadqiqotlari kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurati mavjud.

7. Boshlang'ich ta'lim darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarda, shuningdek, mashg'ulot va turli nutqiy vaziyatlarda savol va topshiriq berishning ta'limiy va ijtimoiy ahamiyatini bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilariga tushuntirish bo'yicha seminar-treninglar, konferensiyalar tashkil etish samarali bo'ladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**РАХМАТУЛЛАЕВА ШАХОДАТ ЗИЕТОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ  
ЛИНГВОДИДАТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ УЧЕБНЫХ  
ЗАДАНИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (узбекский язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.4.DSc/Ped764.**

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский, (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:** XXX

**Официальные оппоненты:** Нуруллаева Шахло Уктамовна  
доктор педагогических наук, профессор  
Кулдошев Рустамбек Авезмуродович  
доктор педагогических наук, профессор  
Исломов Икром Хушбокович  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_ час. на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете. (Адрес: 180119, г.Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (+99875-221-21-04, факс: (+99875-221-00-56, e-mail: kasu\_info@edu.uz), Каршинский государственный университет, факультет иностранных языков, 3 этаж, аудитория 310).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-Ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 180103, г.Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (+99875) 221-21-04).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2026 года).

**Г. Эрназарова**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

**Н.Очилов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

**Ш.Нуруллаева**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой методике преподавания языков используются достижения педагогики и лингвистики. Язык рассматривается как средство понимания существования для человека, а языковая картина мира в мышлении ученика формируется только через родной язык. Все народы воспринимают свой родной язык как главный критерий сохранения национальной идентичности, и при реализации этого в образовании уделяют большое внимание развитию навыков превращения родного языка в активное средство коммуникации и прославлению его как ценности. Сегодня одним из важных вопросов является поиск новых методов обучения родному языку в начальных классах и их постоянное внедрение в практику. Большинство стран эффективно используют достижения преподавания иностранных языков, которые приняты в качестве образца в международных методиках преподавания языков. Наблюдения показывают, что в методике международного преподавания языков основными вопросами являются развитие речевых навыков и подготовка учащихся к различным речевым ситуациям, а их реализация зависит от качества и содержания учебных заданий. В начальной школе большое значение имеет формирование учебного содержания посредством учебных заданий, особенно разработка учебных заданий для учащихся в рамках международной методики преподавания языков.

В мировой научно-методической литературе по преподаванию развитых языков как родного языка обучение родному языку в основном сосредоточено на работе с текстом в начальной школе, подготовке учащихся к чтению, пониманию и реагированию на информацию, представленную различными способами. Особое внимание уделяется степени полезности информации, представленной на каждом уроке, для учащихся в повседневной жизни, а вопросы, задания и упражнения эффективно используются в учебном процессе. В международном опыте преподавания языков учебные задания ориентированы на эффективность взаимной коммуникации. Учебные задания формируются на основе определенных установленных критериев, а в современной глобализационной среде родной язык преподается на основе новых педагогических технологий, интегрированных с другими предметами. Междисциплинарная интеграция, безусловно, обеспечивается вопросами и заданиями, с этой точки зрения следует отметить разработку системы прагматических учебных заданий как главную проблему методики преподавания.

В новом Узбекистане ведётся систематическая работа по повышению престижа и статуса узбекского языка как родного и внедрению современных методов обучения. Действительно, как отметил наш Президент Ш.М. Мирзиёев: «Каждый из нас должен рассматривать внимание к государственному языку как внимание к независимости, уважение и верность государственному языку как уважение и верность Родине, и сделать такое

отношение правилом своей жизни»<sup>27</sup>. Эта необходимость является неотложной задачей повышения научно-методической базы развития образовательных задач в сфере обучения родному языку.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указы Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 г. №УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 8 октября 2019 г. № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 21 октября 2019 г. № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка как государственного языка», от 20 октября 2020 г. № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 июля 2021 г. № 419 «О департаменте духовности и развития государственного языка», от 11 марта 2020 г. № 139 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности фундаментальных и прикладных исследований по узбекскому языку и литературе», а также способствует выполнению задач, поставленных в программе реализации на 2020-2030 годы по созданию современных методик преподавания.

**Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.** Научные исследования по преподаванию родного языка, его сохранению и прославлению как национальной ценности постоянно проводятся в странах Центральной Азии. В многочисленных ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира проводятся исследования, в частности, в таких как Mugla Üniversitesi (Турция), Indiana University (США), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Великобритания), Belfield pedagogical university Germany (Германия), Научный центр гуманитарных исследований (Россия).

